



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР.....	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	



MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Isoqov Zafarjon Zokirjonovich

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Turizm va tarjima kafedrasi dotsenti v.v.b, PhD

Email: zafarjon.isoqov.84@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada mahalliy budjet daromadlar bazasini baholashning nazariy-uslubiy asoslari tahlil qilinib, amaldagi baholash mexanizmlarining samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqot davomida mahalliy budjet daromadlarining shakllanish manbalari, soliq va nosoliq tushumlarning hududiy rivojlanishga ta'siri hamda baholash tizimidagi muammolar aniqlangan. Shuningdek, mahalliy budjet daromadlar bazasini baholash samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kaliit so'zlar: mahalliy budjet, mahalliy budjetni rejalashtirish, mahalliy soliqlar, daromad bazalari, daromad siyosati, davlat budjeti, hududlar moliyasi, mahalliy boshqaruv organlari, budjetlararo munosabatlar, yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, majburiy to'lovlar, soliq stavkalari, soliq tizimi, soliq siyosati, solikli daromadlar.

Abstract. This scientific article analyzes the theoretical and methodological foundations of assessing the local budget revenue base and studies the effectiveness of existing assessment mechanisms. During the study, the sources of formation of local budget revenues, the impact of tax and non-tax revenues on regional development, and problems in the assessment system were identified. Also, scientific and practical proposals were developed to improve the effectiveness of assessing the local budget revenue base.

Key words: local budget, local budget planning, local taxes, revenue bases, revenue policy, state budget, regional finance, local government bodies, inter-budget relations, legal entities, individuals, mandatory payments, tax rates, tax system, tax policy, taxable income.

Аннотация. В данной научной статье анализируются теоретические и методологические основы оценки доходной базы местного бюджета и изучается эффективность существующих механизмов оценки. В ходе исследования были выявлены источники формирования доходов местного бюджета, влияние налоговых и неналоговых поступлений на региональное развитие, а также проблемы в системе оценки. Кроме того, были разработаны научно-практические предложения по повышению эффективности оценки доходной базы местного бюджета.

Ключевые слова: местный бюджет, планирование местного бюджета, местные налоги, налоговая база, налоговая политика, государственный бюджет, региональные финансы, органы местного самоуправления, межбюджетные отношения, юридические лица, физические лица, обязательные платежи, налоговые ставки, налоговая система, налоговая политика, налогооблагаемый доход.

KIRISH

Davlat budjeti va mahalliy budjetlar iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo'lib, davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida davlat budjeti va mahalliy budjetlarning samarali boshqarilishi mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun zarurdir. Davlat budjeti davlatning asosiy ehtiyojlarini moliyalashtiradi, mahalliy budjetlar esa hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Budjet tizimi davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy soha, infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalarda muhim vazifalarni bajarishga imkon beradi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin budjet tizimida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Davlat budjeti va mahalliy budjetlar tizimining samaradorligini oshirish, moliyaviy boshqaruvni yaxshilash, budjet tizimining shaffofligini ta'minlash kabi maqsadlar har yili belgilangan moliyaviy rejalarga asoslanadi. Shu bilan birga, mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi va uning hududiy iqtisodiyotga ta'siri o'rganilishi kerak bo'lgan muhim masalalardan biridir. Mazkur tadqiqotning



maqsadi O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti va mahalliy budjetlar tizimini tahlil qilish, uning samaradorligini oshirish va mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqotda davlat va mahalliy budjetlarning o'zaro aloqalari, ularning funksiyalari va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Maqola, shu bilan birga, budjet boshqaruvining mavjud muammolarini yoritishga va ularni bartaraf etish uchun takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budjetlar tizimi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan ularning iqtisodiyotdagi roli, boshqaruv mexanizmlari va moliyaviy mustaqillik masalalariga qaratilgan. Mahalliy budjetlarning moliyaviy resurslari cheklanganligi, ularning daromad bazasini mustahkamlash zarurligi ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlangan.

O'zbekistonning mahalliy budjet tizimining rivojlanishi, uning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri va moliyaviy mustaqillik masalalarini o'rgangan olimlar qatorida F. Saidov davlat va mahalliy budjetlarning fiskal siyosatdagi roli hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni tahlil qilgan. O'z navbatida, R. Mansurov fiskal desentralizatsiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri va mahalliy budjetlarning samaradorligini oshirish imkoniyatlari haqida tahlillar keltiradi. Ammo bugungi kunda mahalliy budjetlarning barqarorligini ta'minlashda eng muhim masalalardan biri sifatida ularning tarkibiga kiruvchi va tartibga soluvchi soliq tizimini uyg'unlashtirish zaruriyati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ingliz olimi Joseph E. Stiglitz "Soliq bazasini baholashdagi aniqlik va shaffoflik davlat moliyasini samarali boshqarish va budjet rejalashtirish sifatini oshiradi", degan fikrni ilgari surgan [1].

Ingliz olimi Anwar Shah "Mahalliy daromadlar bazasini baholashda hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari va soliq salohiyati e'tiborga olinmasa, budjetlararo tenglashtirish mexanizmlari samarasiz bo'lib qolishini" isbotlab bergan [2].

O'zbek olimi A. Vahobov tomonidan "Mahalliy budjet daromadlar bazasining to'g'ri va xolis baholanishi hududlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi", deb ta'kidlangan [3].

O'zbek olimi D. G'ozibekov tomonidan "Hududlar daromad salohiyatini baholash mexanizmlarining takomillashuvi mahalliy budjetlarning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi", deb fikr yuritilgan [4].

O'zbek olimi Sh. Shodmonov tomonidan ham "Hududlar daromad salohiyatini baholash mexanizmlarining takomillashuvi mahalliy budjetlarning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi", degan fikr ilgari surilgan [5].

O'zbekiston tajribasi uchun ham mahalliy budjetlarning barqarorligini ta'minlashda eng muhim masalalardan biri sifatida ularning tarkibiga kiruvchi va tartibga soluvchi soliq tizimini uyg'unlashtirish, mavjud islohotlarni chuqurlashtirish zaruriyati dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dasturlashtirish va raqamlashtirish modellari kabi metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi ikki darajali — davlat budjeti va mahalliy budjetlardan iborat bo'lib, har ikki darajada moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish muhim strategik vazifalarni o'z ichiga oladi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda mamlakatda fiskal siyosatning ochiqqligi va samaradorligi oshmoqda, biroq mahalliy budjetlar darajasida ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasining mahalliy budjet daromadlarining 2020-2024-yillardagi dinamikasi tahlili [6]

Ko'rsatkichlar	Yillar (mlrd.so'm)				
	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Davlat budjeti daromadlari	128 460,0	127 970,0	148 388,0	184 509,0	274 423,0
Mahalliy budjet daromadlari	27 702,9	35 173,0	47 390,3	55 728,9	57 024,7
Farqi (+;-)	-100 757,1	- 92 797,0	-100 997,7	-128 780,1	-217 398,3
Ulushi (%)	21,6	27,5	31,9	30,2	20,8



Tahliliy ma'lumotda 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida davlat va mahalliy budget daromadlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilganligini ko'rish mumkin. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, davlat budjeti daromadlari 2020-yilda 128 460,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 274 423,0 mlrd so'mga yetib, qariyb 2,1 barobar oshgan. Bu o'sish mamlakat iqtisodiyotining tiklanishi, soliq bazasining kengayishi hamda fiskal siyosatning faollashuvi bilan izohlanadi.

Mahalliy budget daromadlari ham tahlil davrida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2020-yilda 27 702,9 mlrd so'm bo'lgan mahalliy budget daromadlari 2024-yilda 57 024,7 mlrd so'mga yetib, 2 martadan ortiq oshgan. Bu hududlarning moliyaviy salohiyati mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, davlat va mahalliy budget daromadlari o'rtasidagi farq barcha yillarda manfiy bo'lib qolmoqda. 2020-yilda bu farq –100 757,1 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda –217 398,3 mlrd so'mga yetgan.

Mahalliy budget daromadlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 2020-yildagi 21,6 foizdan 2022-yilda 31,9 foizgacha oshgan. Bu davrda fiskal markazsizlashtirish siyosati ijobiy natija berganini ko'rish mumkin. Biroq 2023–2024-yillarda mazkur ko'rsatkich mos ravishda 30,2 foiz va 20,8 foizga pasaygan. Ushbu pasayish davlat budjeti daromadlarining juda tez sur'atlarda o'sishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillarda mahalliy budget daromadlarining o'sishi ijobiy baholanadi. Biroq ularning davlat budjetidagi ulushining barqaror emasligi hududlar moliyaviy mustaqilligini yanada kuchaytirish, mahalliy soliq va yig'imgirlar bazasini kengaytirish hamda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Barchamizga ma'lumki, mahalliy budjetning eng muhim, asosiy daromad manbalari bo'lib mahalliy soliq va yig'imgirlar hisoblanadi. Ular hozirga qadar mahalliy budget daromadlarining o'sishiga qarab mutanosib ravishda shakllantirilib, takomillashtirilmoqda. Agarda respublikamizning bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq turli sohalarida amalga oshirilgan va davom ettirilayotgan islohotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, mahalliy budjetning mavqeyini oshirish borasidagi chora-tadbirlarning aniq yo'nalishi mahalliy budjetning daromad manbayini mustahkamlashga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida mahalliy budget daromadlar bazasini shakllantirish va baholash jarayonida so'nggi yillarda muayyan ijobiy siljishlar kuzatilyapti. 2020–2024-yillar davomida mahalliy budget daromadlari hajmining o'sishi hududlarning moliyaviy salohiyati mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Biroq mahalliy budget daromadlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushining beqarorligi hamda budjetlararo farqning ortib borishi hududiy moliyaviy mustaqillik darajasi pastligicha qolayotganini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni aniqladiki, mahalliy budget daromadlar bazasini baholashda mavjud uslublar ko'proq an'anaviy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, hududlarning real iqtisodiy salohiyati, soliq to'lovchilar bazasi, yashirin iqtisodiyot ko'lami va raqamli ma'lumotlar imkoniyatlari to'liq inobatga olinmayapti. Natijada ayrim hududlarda daromadlar salohiyati past baholanib, budjet rejalashtirishda samarasizliklar yuzaga kelmoqda.

Umuman olganda, mahalliy budget daromadlar bazasini baholash samaradorligini oshirish mamlakatda fiskal markazsizlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, hududlarning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish va barqaror hududiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Mahalliy budget daromadlar bazasini baholash samaradorligini takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

- mahalliy budget daromadlarini baholashning zamonaviy metodologiyasini joriy etish maqsadida hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, soliq salohiyati, demografik omillar va infratuzilma holatini kompleks baholovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zarur. Bunda makro va mikro darajadagi iqtisodiy indikatorlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq;
- raqamli texnologiyalar asosida daromadlar bazasini aniqlash mexanizmini kuchaytirish maqsadida soliq organlari, statistika va kadastr ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash orqali mahalliy daromad manbalarini aniqlash va prognozlashning aniqligini oshirish lozim. Bu yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga xizmat qiladi;
- mahalliy soliqlar va yig'imlarning rolini oshirish maqsadida mahalliy ahamiyatga ega soliqlar bo'yicha stavkalarni hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib moslashuvchan belgilash, shuningdek, ularning tushumlarini to'liq mahalliy budjetda qoldirish amaliyotini kengaytirish taklif etiladi;
- budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish maqsadida transferlar taqsimotida hududlarning real daromad salohiyatini inobatga oluvchi shaffof va adolatli mexanizmlarni joriy etish lozim. Bu mahalliy budjetlarning markaziy budjetga qaramligini bosqichma-bosqich kamaytiradi;



- hududiy moliyaviy rag'batlantirish tizimini joriy etish maqsadida mahalliy budget daromadlarini oshirish bo'yicha yuqori natijalarga erishgan hududlarni qo'shimcha moliyaviy resurslar yoki soliq imtiyozlari bilan rag'batlantirish samarali mexanizm bo'lib xizmat qiladi;

- mahalliy moliya boshqaruvi kadrlarining malakasini oshirish maqsadida mahalliy budget daromadlarini rejalashtirish va baholash bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun doimiy o'quv dasturlari va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Stiglitz, J. E. Economics of the Public Sector. W.W. Norton & Company, New York, 2000 y.
2. Shah, A. Fiscal Decentralization and Macroeconomic Governance. World Bank, Washington D.C., 2004 y.
3. Vahobov A. "Davlat budjeti va budget tizimi". – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
4. G'ozibekov D. "Davlat moliyasi". – Toshkent: Moliya, 2017-yil.
5. Shodmonov Sh., G'afurov U. "Moliya". – Toshkent: Iqtisodiyot, 2016-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining imv.uz sayiti ma'lumotlari.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq Qo'mitasining <https://gov.uz/oz/soliq> sayiti ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>